

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NIZOLARNI BARTARAF ETISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

*Ismoilova Malika Erkinovna, Navoiy davlat universiteti 3-kurs  
tayanch doktoranti*

## THE PRACTICAL STATUS OF DISPUTE RESOLUTION IN PRIMARY EDUCATION

*Ismoilova Malika Erkinovna, 3rd year doctoral student at Navoi  
State University*

## СОСТОЯНИЕ РАЗРЕШЕНИЯ КОНФЛИКТОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ПРАКТИКЕ

*Исмаилова Малика Эркиновна, базовый докторант  
Навоийского государственного университета*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limdagi nizolar va ularni bartaraf etish usullari, yo'llari atroflicha yoritilib berilgan. Bizga ma'lumki, boshlang'ich ta'limda nizoli vaziyatlar juda ko'p uchraydi. Ular quyidagilar: o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar, o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi nizolar, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar. Har bir vaziyat juda qaltis va muhimdir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari xuddi endi o'sib kelayotgan gulga o'xshaydi. Ushbu maqolada ushbu vaziyatlardan bolaning ongiga qanday qilib salbiy ta'sir qilmasdan chiqib ketish yo'llari, usullari va uslublari to'raligicha yoritilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** nizolarni hal qilish usullari, nizolarni hal qilishning muqobil usullari, nazariy va amaliy mulohazalar.

**Abstract:** In this article, conflicts in primary education and methods and ways to resolve them are described in detail. As we know, there are many conflict situations in primary education. They are as follows: conflicts between a teacher and a student, conflicts between a teacher and parents, conflicts between a student and a student. Each situation is very delicate and important. This article covers the full range of methods and methods of how to get out of these situations without having a negative impact on the child's mind.

**Keywords:** conflict resolution methods, alternative conflict resolution methods, theoretical and practical considerations

**Аннотация:** В данной статье подробно описаны конфликты в начальном образовании, а также методы и способы их разрешения. Как мы знаем, в начальном образовании существует множество конфликтных ситуаций. Они таковы: конфликты между учителем и учеником, конфликты между учителем и родителями, конфликты между учеником и учеником. Каждая ситуация очень деликатна и важна. В данной статье рассмотрен весь спектр приемов и методов, как выйти из подобных ситуаций, не оказывая негативного воздействия на психику ребенка.

**Ключевые слова:** методы разрешения конфликтов, альтернативные методы разрешения конфликтов, теоретические и практические соображения.



e-mail:  
malikaerkinovna0813@gmail.  
om

**KIRISH.** Nazariy tahlil natijalari nizolar, pedagogik ziddiyatlar va ularning mohiyati masalasi o'ziga xos dolzarblik kasb etadigan muammolardan biri ekanligini to'la tasdiqladi. Shu sababli ko'rsatilgan sohalarda so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirildi, bir qator manbalar yaratildi. Quyida tadqiqot uchun tanlangan mavzuga turdosh mavzularda yaratilgan manbalar, olib borilgan ilmiy izlanishlar to'g'risida so'z yuritiladi.

**ASOSIY QISM.** A.To'xtaboyev tomonidan yaratilgan "Menejer fazilatlar"[1] nomli o'quv qo'llanmada har qanday jamoada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning rahbar shaxslar tomonidan ijobiy hal qilinishini ta'minlaydigan metodik tavsiyalar beriladi. Ushbu o'quv qo'llanmada ko'rsatilishicha, rahbar jamoa yoki xodimlar o'rtasida vujudga kelgan nizoni bartaraf etish uchun muayyan bosqichlarda quyidagi amaliy harakatlarni bajarishlari lozim:

E.Akimovning[2] ta'kidlashicha, o'quvchilar o'rtasidagi nizolarga muvaffaqiyatli aralashish pedagogning tutgan o'rniga bo'g'liq. Pedagoglarning faoliyatida bu borada 4 xil yondashuv ko'zga tashlanadi:

1. Bunga ko'ra pedagog har qanday nizoni zaif hodisa deb hisoblaydi va uni butunlay himoya qilishga, yo'q qilishga urinadi.

2. Nizoni hal qilishga betaraf munosabatda bo'lish (bunga ko'ra o'qituvchilar o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni imkon qadar ko'rmaslikka, anglamaslikka harakat qiladi).

3. Nizoni bartaraf etishdan qochish (bunga ko'ra pedagog yuzaga keladigan nizolarni o'quvchilar bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlardagi muvaffaqiyatsizlik deb hisoblaydi va hosil bo'lgan nizoni qanday hal qilishni bilmaganligi uchun nizoli vaziyatdan o'zini olib qochadi).

4. Nizoni hal qilishga aniq maqsad va tahlil asosida yondashish (bunga ko'ra pedagog o'quvchilar jamoasi to'g'risida to'la ma'lumotga hamda pedagogik nizolar mohiyatiga doir bilim, malaka va malakalarga egaligi tufayli vujudga kelgan nizoning kelib chiqish sabablarini tahlil qila oladi, shu sababli yoki mavjud nizoni bartaraf etadi yoki uning so'nggi nuqtagacha o'sib borishiga imkon yaratadi; bu holat esa pedagogga nizolarni ularning o'sib borishining to'rtinchi bosqichidagina

nazorat qilish va boshqarish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi nizolarning sabablari quyidagilardir:

**O'quv faoliyatining pastligi.** Agar o'qituvchi sinfda yetarlicha harakat qilmayotganini sezsa, buni so'z izlamadan ifodalashi mumkin: "Ey ahmoqlar, imtihonlarni qanday topshirasizlar?!" Noto'g'ri taqdim etilgan tanqid bolalar tomonidan og'riqli qabul qilinadi va bu orqali o'qituvchi bolaning shashtini sindirishi mumkin.

**Iqtidorlilik.** Bola darsda zeriksa, u chalg'iydi va boshqalarni chalg'itadi, o'qituvchi bilan bahslashadi, uning usullarini tanqid qiladi. Ba'zan o'qituvchi javoban his-tuyg'ularini ushlab turmaydi va o'zaro dushmanlik paydo bo'ladi: "Agar siz juda aqlli bo'lsangiz, doskaga boring va dars mavzusini o'zingiz ayting", "Sinfimizda "daholar" ko'payib ketibdimi?" tarzidagi kinoyali savollar orqali o'quvchining ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Qoidalarga munosabat.** Bo'ysunishni yoqtiradigan o'qituvchilar odatda qoidalarni mensimaydigan o'quvchilarni yoqtirmaydilar. Erkinlikni sevuvchilar esa tartib-intizom talablarini yoqtirmaydilar.

**O'quv rejasining o'quvchining imkoniyatlariga mos kelmasligi.** Ba'zi bolalar ta'limga alohida yondashuvni talab qiladilar, ammo shunga qaramay, ular oddiy maktabda o'qiydilar va o'qituvchilar ularga bajarishga qodir bo'lmagan talablarni qo'yishga majbur. Barcha o'quvchilarning bilim darajasi bir xil emas, ammo o'quv rejada berilgan mavzuni o'qituvchi barcha o'quvchilarga tushuntiradi. Natijada o'quvchi mavzuni tushunmaydi va maktabga borishni xohlamaydi. Bu ertami-kechmi mojaroga olib keladi.

**Oilaviy muammolar.** Agar bola uyda keskin vaziyatga ega bo'lsa, u salbiy his-tuyg'ularni o'qituvchilarga o'tkazishi mumkin. Ba'zida bu tajovuzkorlikda namoyon bo'ladi: u qo'pol bo'lishi mumkin, janjalga tushishi mumkin, stressni boshqa yo'l bilan yengish kerakligini bilmaydi. Har bir o'qituvchi bunday harakatlarda yordam chaqiruvini ko'rishga qodir emas. Ko'pchilik bunga javoban o'zini agressiv tuta boshlaydi. O'quvchi va o'qituvchi ziddiyatlarni qanday hal qilish kerak, degan savolga quyidagicha javob berish lozim.

Bordi-yu, pedagog muammoli vaziyatga yakka hokimlik (avtoritar), betaraflik nuqtayi nazaridan yondashsa, yoki nizoni hal qilishdan qochsa, u holda o'smirlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik tobora chuqurlashib boraveradi.

Agarda o'qituvchi nizoni hal qilishga aniq maqsad va tahlil asosida yondashsa, u holda nizoli vaziyat o'smirlar faoliyatining ijobiy yakun topishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda pedagogika sohasida ham ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan nizolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, A.Kuzina [3] pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq etar ekan, o'qituvchilarning o'rtasida va o'qituvchilari hamda ta'lim muassasalarining rahbarlari o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik nizolarni salbiy hodisa sifatida baholaydi. Muallifning fikriga ko'ra, yosh avlodning ta'limi va tarbiyasiga mas'ul shaxslarning pedagogik jarayonda o'zaro nizoga borishlari ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri emas.

**XULOSA.** Sotsiologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabdagi ta'lim bilan bog'liq nizolarda 63% o'qituvchilar o'zini muhofazalash taktikasini qo'llar ekan, 24 % o'qituvchilar bosim o'tkazish, yoki befarqlik bilan o'zga tomonni yengish taktikasini ishlatar ekan. Biroq umumta'lim jarayonidagi har bir uch o'qituvchidan biri pedagogik nizolarga nisbatan o'z munosabati shakllanmaganligini qayd etgan. O'qituvchilarning qariyb 80 foizi pedagogik nizolar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha o'z ko'nikma, bilim va malakalarining to'liq, professional tarzda shakllanmaganligini qayd etishgan. Biroq bu vaziyat

umumta'lim maktablarida bugungi kunda vujudga kelayotgan turli ziddiyatlar yechimsiz qolib ketayotganligini anglatmaydi. Aslida barcha o'qituvchilar pedagogik nizolar va turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha o'zlari tashabbuskor bo'lib chiqqan holda muammoni hal qiladilar. Bunda ularga qo'l keladigan bilim va malakalar manbai sifatida o'z hayotiy tajribalari, hamkasblar bilan muloqotlar, xalq pedagogikasi asoslari va xalq ijodiyoti namunalari xizmat qiladi. Tabiiy ravishda, o'qituvchilarni maqsadli ravishda pedagogik nizolar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ta'lim jarayoniga tayyorlansa, ularning pedagogik faoliyatlari samaradorligi yaxshiroq ta'minlangan bo'ladi hamda sinfda vujudga kelgan ziddiyatlar to'g'ri yechimlarga olib kelinishi ta'minlangan bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). –T, 2011.
2. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>.
3. Sa'diy Sheroziy. Guliston. Toshkent, 1968.
4. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. -T., 2007.)
5. Malla Ochilov. Muallim qalb me'mori. Toshkent, O'qituvchi. 2001 yil. 56 – 57 betlar.
6. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>.
7. Karimova Madina. Maqola, 208-209-betlar.
8. [www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)

